

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

О‘SPIRIN YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNI KASBIY SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ROLI.

Бақойева Зарина Раѳимовна

*Nizomiy nomidagi TDPU umumiy psixologiya kafedراسи o'qituvchisi,
zbakaeva69@gmail.com*

Annotatsiya: Maktab psixologlari o‘z kasblarida ko‘pincha insonlar hayotidagi qiyin daqiqalarda ish olib boradilar. Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo‘lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo‘r qiziqish bilan qarasa, o‘z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o‘shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo‘ladi, bunday holda har bir shaxs jamiyatga eng ko‘p naf keltiradi. Ushbu maqolada o‘spirin yoshidagi o‘quvchilarni shakllanishida psixologik xizmatning roli haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Psixolog, metod, malaka, o‘spirinlik davri, motivatsiya, orzu, istak kasbiy tayyorgarlik, shaxs kamoloti, qiziqish, kasbiy tanlov.

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ФОРМИРОВАНИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация: В своей профессии школьные психологи часто работают в трудные моменты жизни людей. Если человек творчески относится к выполняемой работе, постоянно повышает свою продуктивность, с большим интересом смотрит на выбранную профессию, понимает социальную значимость своего труда, если его способности улучшаются на работе, то только тогда он будет удовлетворен. работайте и будьте счастливы. В этом случае каждый человек приносит наибольшую пользу обществу. В данной статье представлена информация о роли психологической службы в формировании студентов подросткового возраста.

Ключевые слова: Психолог, метод, навыки, подростковый возраст, мотивация, мечта, желание, профессиональная подготовка, развитие личности, интерес, профессиональный выбор.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE PROFESSIONAL FORMATION OF ADOLESCENT STUDENTS

Abstract: In their profession, school psychologists often work in difficult moments of people's lives. If a person has a creative attitude to the work he is doing, constantly increases his productivity, looks at his chosen profession with great interest, understands the social importance of his work, if his abilities improve at work, then only then will he be satisfied with work and be happy. In this case, each individual brings the most benefit to society. This article provides information about the role of psychological services in the formation of students of adolescent age.

Key words: Psychologist, method, skills, adolescence, motivation, dream, desire, professional training, personality development, interest, professional choice.

Kirish

Hozirgi axborotlar oqimi kuchli rivojlanayotgan bir davrda o'quvchilarimizga katta imkoniyalar berilmoqda. Fan va texnika sohasidagi yangiliklar va yaratilayotgan yangi kashfiyotlar tezda o'z o'quvchisiga etib boradi. Jahonning ko'pgina davlatlarida rivojlanishning yuqori cho'qqisiga chiqishining asosiy mezonini bo'lgan ta'lim sifatiga e'tibor berish, uning samarasi sifatida, esa ilmiy ziyolilar sonini oshirish bilan bog'liqligi e'tirof etiladi. Biz o'quvchi yoshlarimizni ilmiy va bilimli bo'lishlarini rivojlantirish bilan birga ularni kasb hunarga yo'llash ishlarini birga qo'shib olib borishga e'tiborni kuchaytirishimiz va eng avvalo ularni bilimli, bo'lishiga ahamiyat berishimiz zarur. Bugungi kunda o'quvchini tarbiyasiga jiddiy e'tibor berib ularni, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, o'ta muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Chunki maktablarda, ayniqsa yuqori sinf o'quvchilarini ta'lim-tarbiyasi bilan qiziqib, ularni kuzatganimizda, ular bilan suhbatlashganimizda, qunt bilan bilim olishga nisbatan o'quvchilarimizni internet va boshqa qiziqishlariga yo'llovchi omillar yetarlicha ekanligi ma'lum bo'ldi. Ular: telefon, internet, telefondagi har hil o'yinlar, hatto kechki ko'ngil ochar kafelarda o'quvchi yoshlarimizni qatnashishi, ota va onalarning farzand tarbiyasiga e'tiborining kamligi, yoshlarimizga ko'chadagi tengdoshlarining aks ta'siri, shuningdek, yoshlikdan balog'at yoshiga o'tish davridagi fiziologik,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

psixologik o'zgarishlar va boshqa bir qancha omillar o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Tarbiya jarayonining davomiyligi va o'ta murakkabligi, inson tarbiyasi bilan shug'ullanishning qiyinligi, shaxsning ruhiy holatining murakkabligi kabi xilma-xildir, bu esa tarbiya ishlarida ham har-xil usullardan foydalanishni talab qiladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. B.Shouning fikri bo'yicha kasb - mutaxassislarning chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir. YE.A.Klimov o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritib, YE.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija mas'uliyatlarni yetkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi" nisbatan tor ta'rifni esa V.G.Makushin keltiradi, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Mashhur rus psixologi K.K.Platonov mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning sub'ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. Shu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlar shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. Chunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishda o'qituvchilar va sinf rahbarlari; ota-onalar kengashi; to'garaklarning rahbarlari bevosita ish olib boradilar. Maktabdan tashqari muassasalar, odatda, qiziqishlari va mayllari yetarli darajada namoyon bo'lgan bolalarni birlashtiradi. Bunday bolalarda ijodkorlik va tashabbus ruhi ustunlik qiladi, ular amaliy faoliyatining xususiyati esa muayyan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. O'spirin o'quvchida o'zini anglash zamirida o'z-o'zini tarbiyalash istagi tug'iladi va bu ishning yo'llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbiiq qilish ehtiyoji vujudga keladi. O'zlariga ma'qul ma'naviy-psixologik qiyofaga ega bo'lish uchun oqilona o'lcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar. O'spirinda ideallar bir necha ko'rinishda namoyon bo'lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar qahramonlari timsolida o'zlarida yuksak fazilatlarni gavdalantirishni orzu qiladilar. Bu orzular mazmun jihatidan o'spirin yigitlar va qizlarda farq qilishi mumkin. Masalan, qizlar ko'pincha mehnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar qahramonining xususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarini ideal darajaga ko'taradilar. Ammo ayrim o'quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, baquvvat yo'lto'sar, xiylagar quv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taklid qilishga ham moyil bo'ladilar. Kuzatishlar va hayot tajribalarining ko'rsatishicha, ba'zi xollarda ilk o'spirinlar o'zlarini qo'rqmas, jasur qilib ko'rsatishga, noo'rin harakatlarga moyil bo'ladilar. İlk o'spirinlar ma'naviy xislatlarga, axloqiy mezonlar mohiyatiga jiddiy munosabatda bo'ladilar. Masalan, burch, vijdon, g'urur, qadr-qimmat, faxrlanish, ma'suliyat, or-nomus kabi tushunchalarni chuqur tahlil qila oladilar. Lekin hammalari emas. ahloqiy ma'naviy qarashlar, tasavvurlar shakllanishi uchun pedagoglar sog'lom muxit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishlari zarur. Ayrim munozarali tadbirlar puxta o'ylab tashkil qilinishi, ayrim chet el filmlari muxokamasi shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy hayotda uchraydigan yaramas yurish-turishlarga, illatlarga zarba berish pedagoglar jamoasining muhim vazifasi hisoblanadi. O'spirinlarda balog'atga etish tuyg'usi takomillashib borib o'zining o'rnini belgilash va ma'naviy dunyosini ifodalash tuyg'usiga

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

aylanadi. Bu hol uning o'zini alohida shaxs ekanligi, o'ziga xos xislatini tan olinishini istashida aks etadi.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida bolalar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, kasb-hunarga yo'naltiruvchi tadbirlarning o'tkazilishida metodik va amaliy yordam beradi, qilingan ishlar natijalarini tahlil qiladi va umumlashtiradi. O'z hududi doirasida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni Mehnat vazirligining bo'linmasi orqali oladi, o'rganadi va zarur bo'lgan kasb-hunarlar haqida maktablardagi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhbat va ko'rik-tanlovlar, turli musobaqalar uyushtirishda yordam ko'rsatadi. Bizga ma'lum, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero, jamiyatimizning ma'naviy yangilanishida, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o'ynaydi. Chunki xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ishbilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boshqalar. Keyingi kasblarning tizimlash qobiliyatlarini hisobga olishga asoslanadi.(1-jadval)

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

Maishiy xizmat ko'rsatish sohani, uning tarmoqlarini, korxonalarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni mazkur sohaga tegishli kasblarni tanlashga yo'naltirish

1-jadval

Maishiy xizmat tarmoqlari			
Maishiy xizmatga mansub kasblar			
Aholiga uy-ro'zg'or yuzasidan xizmat ko'rsatish		Savdo xizmati	Umumiy ovqatlanish xizmati
1	sartaroshlik	Sanoat mollari sotuvchisi	Oshpaz
2	tikuvchi	oziq-ovqat mollari sotuvchisi	Qandolatchi
3	xammom va kir yuvish qabulchisi	molshunos ta'minotchi	Ofitsiant
4	teleradio ustasi		shef-oshpaz
5	yotoqxonona navbatchisi		Kassir
6			oshxonona rahbari

Talab etiladigan qobiliyatlar bo'yicha kasblarni tizimlash bo'yicha bir necha bor urinishlar bo'lgan. Dastlab, 1953 yilda D.Paterson tomonidan taklif etilgan. Kasblar tizimlashga to'xtalib o'tamiz. U juda keng tarqalgan bo'lib, tizimlash asosini 9 ta turli qobiliyatlar tashkil etadi. Minnesota Occupational Rating Scale (MORS) yordamida kasbshunos psixologlar tomonidan 432 ta kasb tanlab olinib, quyidagi 7 ta guruhga ajratiladi. Akademik, mexanik, ijtimoiy, diniy, musiqaviy, artistlik va jismoniy guruhlardir. Bitiruv ishi natijalarini umumlashtirish natijasida 432 kasbni 214 ta namunaga keltirildi, ulardan 137 tasi bitta kasb mutaxassislikka qolgan 77 tasi ikkitadan 18 tagacha, mutaxassislikni birlashtiradi. Kasbiy yo'nalganlik nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo hamdir. Psixologiyada kasbiy yo'nalganlik bo'yicha uch nazariy nuqtai nazar mavjud. Birinchi nuqtai nazar faoliyatning muvaffaqiyati va usullari bog'liq bo'lgan individual xususiyatlarning amaliy o'zgarishligi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

va barqarorligi haqida g'oyaga asoslangan. Bunda birinchi tomondan, u yoki bu ishga mos insonlarni kasbga yo'llash va tanlashga urg'u beriladi, ikkinchi tomondan u yoki bu insonning individual xususiyatlariga mos kasblarni tanlashda namoyon bo'ladi. Kasbiy yo'nalganlik Psixologiyada kasbiy yo'nalganlik bo'yicha uch nazariy nuqtai nazar mavjud. Ikkinchi nuqtai nazar qobiliyatlarni maqsadga muvofiq shakllantirish g'oyasidan kelib chiqadi, bunda har bir insonning muhim xislatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Yuqorida keltirilgan bu ikki nuqtai nazar ham har xil shakllantirilishi mumkin, lekin ularning umumiy metodologik kamchiligi shundaki, individuallik va mehnat faoliyati o'zaro bog'liq bo'lmagan, bir-biriga qarama-qarshi, biri ikkinchisini albtata bo'ysundiradigan kattaliklar sifatida qaraladi. Kasbiy yo'nalganlik Psixologiyada kasbiy yo'nalganlik bo'yicha uch nazariy nuqtai nazar mavjud. Uchinchi nuqtai nazar psixologiyadagi ong va faoliyatning birligi tamoyilidan kelib chiqadi, faoliyatning individual uslubini shakllantirishga yo'naltirilgan. Ushbu konsepsiya E.A.Klimov ilgari surgan quyidagi qarashlarga asoslanadi: Faoliyatning muvaffaqiyati uchun muhim bo'lgan amaliy tarbiyalanmaydigan shaxsiy (psixologik) xislatlar mavjud. Kasbiy faoliyat sharoitlariga moslashishning mehnat mahsuldorligi bo'yicha bir xil bo'lgan, har xil usullari mavjud. Alohida qobiliyatlarning kuchsiz ifodalanganligini mashq qilish yoki boshqa qobiliyatlar yoki ish usullari yordamida bartaraf etishning keng imkoniyatlari mavjud. (sekin javob qaytarish qobiliyatini tayyorlanish tadbirlaridagi o'ta diqqatlilik bilan to'ldirish mumkin; bir sharoitdagi faoliyatning susayishini, inson sun'iy ravishda faoliyatni o'zgartirishi mumkin – harakatlar tartibini o'zgartirishi yoki ob'ektlar ranglarini o'zgartiradi deb tasavvur qilishi mumkin). Shaxsning individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda qobiliyatlarni shakllantirish zarur, tashqi sharoitlarni hisobga olgan holda ichki sharoitlarni rivojlantirish. Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda to'garak va mashg'ulotlar muhim rol o'ynaydi. O'spirin o'quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun o'qituvchilar, sinf rahbarlarning siymolari muxim rol o'ynaydi.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Ma'lumki, o'quvchilar kasblarga oid ma'lumotlarning asosiy hajmini umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-9 sinflarida mehnat ta'limi jarayonida egallaydilar. Tadqiqot

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

ishida dastlabki paragraflarda bu jarayonning muhimligini ta'kidlovchi ikki omil tahlil qilib berildi, ya'ni birinchidan, kasbga moslashtirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganida o'quvchilar o'z qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari, salomatligi va boshqa sifatlaridan kelib chiqib kelajagini to'g'ri belgilab olishini ta'minlaydi; ikkinchidan, jamiyatimizning har bir jabhasida o'z kasbini mahorat darajasida egallagan, mustaqil va ijodiy fikrlovchi mutaxassislarga ega bo'ladi. O'quvchilarni kasbga moslashtirishda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari mazmun-mohiyati tahlili asosida darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish maqsad va vazifalari, o'quvchi kasbiy sifatlarini dastlabki pedagogik-psixologik tashxis qilish, tanlagan kasbi to'g'risida axborot berish, o'quvchi shaxsini ijtimoiy-kasbiy moslashtirish, kasbiy maslahatlar, kasbiy-iqtisodiy tarbiya metodlarini qo'llash yo'llari ko'rsatib berildi. Shu bilan birgalikda darsdan tashqari mashg'ulotlari, ommaviy shakldagi darsdan tashqari mashg'ulotlar hamda o'quvchilarning mehnat birlashmalari kabi mashg'ulot shakllaridan foydalanishga oid tavsiyalar berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU
2. G'oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi
3. Nishonova Z. T., Alimbaeva M. V. Psixologik xizmat. -Toshkent-Fan va texnologiya markazi, 2014
4. Райимовна, Б. З. (2022). ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ТРЕНИНГА НА ПОДГОТОВКУ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI, 2(11), 317-318.
5. Klimov S. A. va b. —Ishlab chiqarish asoslaril. Kasb tanlash 2 - qism. -M. 1987
6. Райимовна, Б. З. (2022). ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ТРЕНИНГА НА ПОДГОТОВКУ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI, 2(11), 317-318.